

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning hajmi joriy narxlarda 18 884,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 8,1 %ga o'sdi. Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi 2021- yil yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 115,5 %ni tashkil qildi.




**Yalpi hududiy mahsulot** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

2021-2022 yil yanvar-mart oylari uchun Yalpi hududiy mahsulot fizik hajmi va deflyator indeksi dinamikasi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da).



**Yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari Yalpi hududiy mahsulot o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi.


Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,2 % (yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi – 13,3 %), sanoat – 109,6 % (54,1 %), qurilish – 105,0 % (5,7 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 113,1 % (6,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 109,8 % (4,6 %) hamda boshqa xizmat tarmoqlari – 106,0 % (15,6 %)ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi hududiy mahsulot 6 407,7 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,4 %ga o'sdi. O'tgan yilning shu davrida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 5 070,5 ming so'mni va 102,6 %ni tashkil qilgan.

**Aholi jon boshiga hisoblangan  
Yalpi hududiy mahsulot hajmi**  
(joriy narxlarda, ming so‘m)



**Aholi jon boshiga hisoblangan  
Yalpi hududiy mahsulot o‘sish sur‘atlari**  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Respublika bo‘yicha 2022- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi 4 604,6 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 %ga o‘tdi. 2021- yilning yanvar-mart oylarida usbu ko‘rsatkich mos ravishda 3 867,1 ming so‘mni va 100,6 %ni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda kichik tadbirkorlikning yalpi qo‘shgan qiymati hajmi 7 195,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

**Yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda kichik biznesning yalpi qo‘shgan qiymati hajmi**

(mlrd. so‘mda)




2022- yilda kichik tadbirkorlikning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 39,9 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq.

**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi**


(yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan)



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
Yalpi hududiy mahsulotning ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>Fizik hajm indeksi %da</i>
	<i>2021- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar- mart</i>	
<b>I.Yalpi hududiy mahsulot - jami</b>	<b>15 114,7</b>	<b>18 884,2</b>	<b>108,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 568,9	18 043,5	108,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	545,8	840,7	110,0
<b>II.Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>14 568,9</b>	<b>18 043,5</b>	<b>108,1</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>2 173,0</b>	<b>2 406,9</b>	<b>103,2</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>8 328,3</b>	<b>10 784,4</b>	<b>109,2</b>
sanoat	7 518,2	9 758,8	109,6
qurilish	810,1	1 025,6	105,0
<b>Xizmatlar</b>	<b>4 067,6</b>	<b>4 852,2</b>	<b>108,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	960,9	1 207,7	113,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	727,9	838,0	109,8
boshqa xizmat tarmoqlari	2 378,8	2 806,5	106,0

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)




Yuqorida keltirilgan diagrammada ko'rinib turibdiki, qurilish tarmog'ining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 2021- yildagi 5,6 %dan 2022- yilda 5,7 %ga, sanoat tarmog'ining ulushi 54,1 %dan 51,6 %ga oshdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 14,9 %dan 13,3 %ga, xizmatlar esa 27,9 %dan 26,9 %ga kamaydi.


Yalpi hududiy mahsulot tarkibida jami xizmatlar sohasining ulushi 26,9 %ga to'g'ri keldi, jumladan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 6,7 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 4,6 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 15,6 %ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi**  
(jamiga nisbatan)



**Ma'lumot uchun:** 2021-yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida jami xizmatlar ulushi 27,9 %ga to'g'ri kelgan, jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulotlar tarkibidagi ulushi – 6,6 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,0 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari – 16,3 %ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar-mart oylarida  
Yalpi hududiy mahsulot o'lishida tarmoqlarning hissasi  
(jamiga nisbatan %da)




2022- yil yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulot o'lishida Xizmatlar sohasining hissasi 2,2 %ni tashkil qildi. Jumladan, Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hissasi 0,8 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 0,5 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 0,9 %ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulot o'lishida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining hissasi – 0,1 %ni, sanoat – 1,3 %ni, qurilish – 1,5 %ni, xizmatlar – 0,7 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar – 0,2 %ni tashkil etgan.



**Yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulotning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



2022- yil yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulot deflyatori indeksi 2021- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 115,5 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilish sohasida – 120,6 %, sanoatda – 118,4 %, savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlarida – 111,1 % qayd etildi.

## **Statistik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Yalpi hududiy mahsulot** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot** – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo'shilgan qiymat** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.